

BO'LAJAK HARBİYLARGA XORİJIY TILLARNI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN METODNI QO'LLASH ORQALI KOMMUNİKATİV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Shiknazarova Durdana Baxtiyarovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Email: sheyxnazarovadurdona@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak harbiylar uchun xorijiy til, xususan ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan metodlardan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi atroficha yoritilgan. Maqolada nazariy qarashlar bilan bir qatorda, kursantlar ishtirokida olib borilgan tajriba asosida olingan natijalar tahlil qilingan. TBL (Task-Based Learning), CLT (Communicative Language Teaching) va ESP (English for Specific Purposes) kabi metodik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi orqali harbiy soha uchun xos bo'lgan muloqotga tayyor, faol, mustaqil fikrlovchi kadrlarda ingliz tilida erkin nutq ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: harbiy ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, TBL, CLT, ESP, integratsiyalashgan metod, CEFR.

Abstract: This article focuses on the development of communicative competence in English for future military personnel through the application of integrated language teaching methods. Based on both theoretical foundations and practical experiences with cadets, the article analyzes how task-based learning (TBL), communicative language teaching (CLT), and English for specific purposes (ESP) can be effectively implemented in a military context. The study emphasizes the importance of real-life military scenarios, interactive assignments, and CEFR-based evaluation to enhance linguistic performance, strategic thinking, and operational readiness.

Keywords: military English, communicative competence, TBL, CLT, ESP, integrated method, CEFR.

Kirish:

Hozirgi globallashuv sharoitida xalqaro harbiy hamkorlik, tinchlikparvar missiyalar, ko'p millatli qo'shinlar bilan olib boriladigan operatsiyalar, diplomatik uchrashuvlar va xalqaro forumlardagi ishtirok bo'lajak harbiylar oldiga xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini puxta o'zlashtirishni dolzarb vazifa sifatida qo'ymoqda. Harbiy sohada ingliz tilida samarali muloqot qila olish harbiy xizmatchining professional tayyorgarligi, liderlik fazilatlari va zamonaviy texnologiyalarni egallaganlik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

BMT, NATO va boshqa xalqaro tashkilotlar tarkibida faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchilarining til bilish darajasi xalqaro operatsiyalarning muvaffaqiyatida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Masalan, NATOning 2022-yilgi hisobotida ko'rsatilishicha, a'zo davlatlar harbiy xizmatchilarining 83 foizi kamida B1 darajada ingliz tilini bilishi talab qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorida harbiy ta'linda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda oliy harbiy ta'lum muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda yangicha, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni tatbiq etish zarurati mavjud. An'anaviy grammatika va tarjima asosidagi darslar kursantlarda tilni real vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini yetarlicha rivojlantira olmaydi. Bu holat kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonini cheklaydi, natijada kursantlar xizmat faoliyatida xorijiy tillarda samarali muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Shunday ekan, til o'rganish jarayonini faollashtirish, kursantlarni real harbiy kontekstlarga moslashtirish, ularning strategik va operatsion fikrlashini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan metodlardan foydalanish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili:

Zamonaviy til o'qitish metodlari orasida CLT (Brown, 2007; Richards, 2006) muloqotga yo'naltirilgan ta'lum tizimi sifatida yetakchi o'rin tutadi. Bu yondashuv o'quvchini markazga qo'ygan holda, tilni real muloqot vositasi sifatida o'rgatishni maqsad qiladi. CLTning afzalliklari shundaki, u tilni faqat bilim sifatida emas, balki faol muloqot vositasi sifatida o'rgatadi; ammo kamchilik tomoni – grammatik aniqlikka yetarli e'tibor berilmasligi mumkin.

TBL (Prabhu, 1987; Willis & Willis, 2007) esa vazifalar asosidagi o'qitish bo'lib, til o'rganishni faol topshiriqlar bajarish orqali shakllantirishni taklif qiladi. Bu metod kursantlarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, TBLni amalda tatbiq etish ko'p vaqt va resurs talab qiladi, bu esa harbiy ta'lum muassasalarida uni qo'llashda cheklov bo'lishi mumkin.

ESP (Dudley-Evans, 1998) esa maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan til o'qitishni ifodalaydi. Harbiy ingliz tili ta'lumida ESP yondashuvi ayniqsa dolzarb, chunki u harbiy terminologiya, taktik topshiriqlar va xizmat bilan bog'liq nutq birikmalarini chuqr o'rgatishga imkon beradi. ESPning afzalligi – kontekstual moslik; ammo, uni umumiyl til ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirishda muvozanatni saqlash murakkab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ham so'nggi yillarda dolzarb bo'lib bormoqda. Bu metoddha harbiy fanlar mazmuni ingliz tilida o'rgatiladi, bu esa tilni kontekstda o'zlashtirish imkonini oshiradi (Coyle, 2010).

CEFR (2001) esa til bilish darajalarini aniqlovchi va baholovchi xalqaro standart bo'lib, A1 dan C2 gacha bo'lgan bosqichlar orqali o'quvchining kommunikativ qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Harbiy ingliz tilini o'qitishda CEFR mezonlarini

qo‘llash orqali kursantlar bilim darajasining aniq bahosi berilishi mumkin. CEFRning afzalligi – baholashdagi anqlik va standartlashtirish; ammo u harbiy kontekstdagi o‘ziga xosliklarni to‘liq aks ettira olmasligi mumkin.

Ushbu metodlarning har biri alohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, aynan integratsiyalashgan yondashuv – ularning kuchli jihatlarini birlashtirish orqali kursantlarda samarali kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga imkon beradi.

Metodologiya:

Ushbu tadqiqot Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tarkibidagi harbiy yo‘nalish kursantlari bilan 2024-yil noyabr oyidan 2025-yil yanvar oyigacha bo‘lgan 3 oylik davrda olib borilgan tajribaga asoslanadi. Tajriba davomida jami 48 nafar kursant ishtirok etdi va ular tasodifiy tanlov asosida teng sonli 2 ta eksperimental guruhga bo‘lindi. Har bir guruh bilan haftasiga 3 marotaba, 90 daqiqalik mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Eksperimental guruhlarda CLT (Communicative Language Teaching) va TBL (Task-Based Learning) metodlari asosida darslar olib borildi. Mashg‘ulotlar mazmuni harbiy kontekstga moslashtirildi: checkpoint dialogue, command relay, tactical briefing, patrol simulation kabi real stsenariylar asosida topshiriqlar bajarildi. Unda har bir kursantdan faol qatnashuv, mustaqil fikrlash va jamoaviy muloqot ko‘nikmalari talab qilindi.

Baholash jarayoni CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) asosida tashkil etildi. Boshlang‘ich bosqichda (pre-test) va tajriba yakunida (post-test) barcha ishtirokchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutq bo‘yicha ko‘nikmalari baholandi. Baholashda 100 ballik tizim qo‘llanildi va asosiy ko‘rsatkichlar sifatida talaffuz anqligi, leksik va grammatik to‘g‘rilik, savollarga mos va tez javob qaytarish, muloqot davomiyligi va interaktivlik darajasi olindi.

Statistik tahlil uchun Microsoft Excel va SPSS dasturlaridan foydalanildi. Guruhlar orasidagi o‘zgarishlar t-testi yordamida solishtirildi, natijalarining statistik ahamiyati $p < 0.05$ darajasida belgilandi. Bu esa metodik yondashuvlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, CLT va TBL metodlari asosida olib borilgan mashg‘ulotlar kursantlarning kommunikativ ko‘nikmalarida sezilarli o‘sishga olib kelgan.

Natijalar va tahlil:

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan metodlardan foydalangan darslar kursantlarning umumiyligi til ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ko‘rsatkichlar	Boshlanishdagi (%)	Yakunidagi (%)
Harbiy terminologiyani to‘g‘ri ishlatish	48%	90%
Mustaqil fikr bildirish va nutq mantiqliligi	41%	85%
Guruhi muloqtlarda faol ishtirok	36%	78%
CEFR B1 darajasiga yaqinlik (og‘zaki nutq)	29%	73%

Shuningdek, kursantlar tomonidan bajarilgan topshiriqlar ichida "checkpoint simulation" va "command relay" mashg'ulotlari eng samarali usullar sifatida baholandi. Nutq davomiyligi bo'yicha kursantlar 1–2 daqiqalik monologlardan 3–5 daqiqalik muloqotli dialoglarga o'ta oldilar. Talaffuz aniqligi va grammatik moslik mezonlari bo'yicha ballar o'rtacha 58 dan 82 gacha oshdi.

SPSS tahlili natijalarida t-testi ($p < 0.05$) har bir ko'rsatkich bo'yicha statistik jihatdan sezilarli farq borligini isbotladi. Bu esa integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Kursantlarning fikr-mulohazalariga ko'ra, mazkur metodlar bilan o'tilgan mashg'ulotlar ularni real hayotiy holatlarga yaqinlashtirgan, harbiy sharoitlarda ingliz tilida samarali muloqot qilishga undagan va umumiy motivatsiyani oshirgan. Ular darslar davomida berilgan topshiriqlarni amaliy xizmatda bevosita qo'llash mumkinligini ta'kidladilar.

Xulosa:

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilini o'qitishda CLT, TBL va ESP metodlarini integratsiyalash orqali kursantlarning kommunikativ kompetensiyasi samarali shakllanadi. Tajriba jarayonida kursantlar nafaqat harbiy leksikani egalladilar, balki real hayotga yaqin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash, aniq va izchil muloqot yuritish ko'nikmalarini ham rivojlantirdilar. Baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, CEFR mezonlari asosida kursantlarning til darajasi oshgan, ular murakkab topshiriqlarni ingliz tilida bajara olish darajasiga yetgan.

Shuningdek, darslarda interaktiv metodlardan foydalanish, simulyatsion topshiriqlar, guruhli muhokamalar va real ssenariylar asosida tashkil etilgan muloqotlar orqali kursantlarning o'z fikrini mustaqil ifoda etish darajasi ancha oshgan. Bu esa ularning nafaqat til kompetensiyasini, balki operativ va strategik fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirganini anglatadi.

Mazkur tajriba natijalari harbiy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi. Shunday ekan, metodik integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat lingvistik, balki psixologik va ijtimoiy-kommunikativ jihatdan ham yuqori natjalarni kafolatlaydi.

Kelgisidagi tadqiqotlar doirasida ushbu metodlarning boshqa tillar, ixtisosliklar yoki xizmat turlari (masalan, tibbiy, muhandislik, razvedka) bo'yicha qo'llanish imkoniyatlarini o'rghanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ilg'or texnologiyalar – sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari, interaktiv mobil ilovalar, virtual simulyatorlardan foydalanish bo'yicha eksperimental loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Amaliy tavsiya sifatida, harbiy ingliz tili o'qituvchilari uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, darslik va topshiriqlarni NATO hamda xalqaro harbiy kommunikatsiya standartlariga moslashtirish, darslar jarayonida CEFR mezonlarini aniq va tizimli qo'llash kerak. Harbiy ta'lim muassasalarida mazkur yondashuvlar asosida

o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish ham istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Longman.
2. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes*. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education Limited.
4. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)*.
5. Prabhu, N. S. (1987). *Second Language Pedagogy*. Oxford University Press.
6. Willis, D., & Willis, J. (2007). *Doing Task-Based Teaching*. Oxford University Press.
7. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
8. Ishmuhamedov, R. (2005). *Ways to increase the efficiency of education using innovative technologies*. Nizomiy Publishing.
9. Kodzhaspirova, G. M., & Kodzhaspirov, Y. A. (2000). *Pedagogical dictionary*. Academy.
10. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. Routledge.